

ADABIY TA'SIR VA MILLIY INDIVIDUALLIK (Sh. Xolmirzayev va Rabindranatx Tagor hikoyalari qiyosida)

Yangibayeva Nodira Saparbayevna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

UrDPI "O'zbek tili va adabiyoti kafedrası" dotsenti (v.b)

Annotatsiya. Mazkur maqolada sharq adabiy tafakkurining ikki yirik namoyandasi - Shukur Xolmirzayev va Rabindranath Tagore ijodida adabiy ta'sir hamda milliy individuallik masalalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Tagorning "Meros" hamda Xolmirzayevning "Kimsasiz hovli" hikoyalari asos qilib olinib, ularda aks etgan insoniy qadriyatlar, yolg'izlik, meros tushunchasi va ma'naviy mas'uliyat muammolari o'rganiladi. Tahlil jarayonida ikki adib asarlarida inson va jamiyat o'rtasidagi munosabat, ruhiy kechinmalar talqini hamda badiiy ifoda vositalaridagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. Shuningdek, milliy muhit, mentalitet va individual uslubning asar mazmuni va g'oyaviy yo'nalishiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijasida adabiy uyg'unlik bilan birga har bir ijodkorning o'ziga xos badiiy dunyoqarashi mavjudligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: adabiy ta'sir, o'zlashtirish, motiv, syujet, original uslub.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ вопросов литературного влияния и национальной индивидуальности в творчестве двух выдающихся представителей восточной литературной мысли - Shukur Xolmirzayev и Rabindranath Tagore. В исследовании в качестве основного материала рассматриваются рассказы «Наследство» и «Одинокий двор», в которых анализируются проблемы человеческих ценностей, одиночества, наследия и духовной ответственности. В процессе анализа выявляются сходства и различия в изображении взаимоотношений человека и общества, в интерпретации внутренних переживаний, а также в художественных средствах выражения. Кроме того, освещается влияние национальной среды, менталитета и индивидуального стиля на содержание и идейную направленность произведений. В результате исследования обосновывается, что наряду с литературной общностью каждый писатель обладает собственной уникальной художественной концепцией.

Ключевые слова: литературное влияние, заимствование, мотив, сюжет, оригинальный стиль.

Annotation. This article presents a comparative analysis of literary influence and national individuality in the works of two prominent representatives of Eastern literary thought - Shukur Xolmirzayev and Rabindranath Tagore. The study focuses on the stories "Inheritance" and "The Lonely Yard," examining themes such as human values, loneliness, inheritance, and spiritual responsibility.

The analysis identifies similarities and differences in the portrayal of the relationship between the individual and society, the interpretation of psychological experiences, and the use of artistic expression. It also highlights the influence of national environment, mentality, and individual style on the content and ideological direction of the works. The study concludes that alongside literary commonality, each writer demonstrates a distinct artistic worldview.

Keywords: literary influence, adaptation, motif, plot, original style

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda turli millat va madaniyat vakillari ijodidagi mushtaraklik va o'ziga xoslikni qiyosiy o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, sharq adabiy tafakkuri doirasida Shukur Xolmirzayev va Rabindranath Tagor ijodi o'rtasidagi badiiy, falsafiy va axloqiy uyg'unlik alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur tadqiqotda Tagorning "Meros" hikoyasi hamda Sh.Xolmirzayevning "Kimsasiz hovli" hikoyasi qiyosiy tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati, badiiy yechimlari, inson va jamiyat munosabatiga doir qarashlari o'rganildi.

Tadqiqotning maqsadi – ikki adib ijodida insoniy qadriyatlar, yolgʻizlik, meros va maʼnaviy masʼuliyat kabi tushunchalarning ifodalanishidagi oʻxshash va farqli jihatlarni aniqlash, ijodiy taʼsir va individuallik masalasini yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon adabiyotshunosligida adabiy taʼsir va uning soʻz sanʼati rivojidadagi oʻrni, ijodkorlar individual uslubining shakl topishida ijodiy taʼsir roli bobida koʻp ilmiy muhohasalar boʻlgan. Rus adabiyotshunoslik anʼanalarida “adabiy taʼsir” atamasi odatda “литературное влияние” (yoki “художественное влияние”) shaklida qoʻllanadi va “bir yozuvchi, asar, adabiy yoʻnalish yoki milliy adabiyotning boshqa bir yozuvchi yoki adabiyot rivojiga mavzu, gʻoya, obrazlar tizimi, janr, uslub, poetika va badiiy fikrlash shakllari orqali koʻrsatgan taʼsiri”[1.443-444] sifatida taʼriflanadi. “Adabiy taʼsir – bu bir adib yoki adabiy maktabning badiiy ijodida boshqa yozuvchi yoki adabiyotga koʻrsatadigan ijodiy taʼsiri boʻlib, u oddiy koʻchirishdan farqli oʻlaroq, muallif unsurlarining oʻzlashtirilishi, qayta ishlanishi va badiiy talqin etilishi orqali yuzaga keladi.[2]”

Rus adabiyotshunosi V.I. Tyupa ijodiy taʼsir masalasida toʻxtalar ekan, muallifning ongli ijodiy taʼsir bilan ishlash mexanizmlarini tahlil qilib, adabiy –ijodiy taʼsirni, intertekstual tarzida baholaydi va buni motiv va syujetni ongli oʻzlashtirish, obraz va uslubiy model kabilarni qayta ishlash, “begona matn”ni yangi badiiy tizimga kiritish sifatida qayd qiladi. Aniqroq qilib aytsak, intertekstual aloqalarni oddiy tasodifiy oʻxshashlikdan farqlaydi. Aytish mumkinki, Tyupaning fikri Moskvina, Baxtin, Kristeva qarashlari bilan metodologik jihatdan bir-biriga mos keladi. Bu mavzuda ingliz filologlaridan Harold Bloom qarashlariga eʼtibor qaratsak, u kuchli adabiy taʼsirni xuddi “ijodiy kurash” kabi deya keltirtadi[3.5-18]. Menimcha, Bloomning bu yondashuvi adabiy jarayonning ichki mexanizmini juda aniq ochib beradi, chunki ijod hech qachon “boʻsh joyda” yuzaga kelmaydi. Har qanday yozuvchi avvalgi tajribani oʻzlashtiradi, lekin uni aynan takrorlamaydi – balki qayta talqin qiladi, oʻzgartiradi va yangi badiiy shaklga olib chiqadi. Shu jihatdan “ijodiy kurash” – bu qarama-qarshilik emas, balki transformatsiya jarayonidir. Yaʼni: taʼsir → oʻzlashtirish → qayta ishlash → individuallik.

Taʼkidlash joizki, bu mavzuda rus olimlari kabi koʻp tadqiq qilishgan. Xususan, M.Y.Lotman “Структура художественного текста”[4.384] kitobida obraz modeli, tipologiya, taʼsir masalasiga oʻz yondashuvlari bildirib, badiiy matn qurilishida adabiy taʼsir bobida asosli fikrlarni ilgari suradi. Uning fikricha, “Har qanday novator (yangicha) asar anʼanaviy material asosida quriladi. Agar matn anʼanaviy tuzilma xotirasini saqlamasa, uning yangiligi (novatorligi) idrok etilmaydi.” Darhaqiqat, Lotman taʼkidlaganidek, badiiy yangilik mutlaqo “boʻsh joyda” yuzaga kelmaydi, balki u avvalgi adabiy anʼana va estetik tajribaga tayanadi. Bizningcha, bu qarash adabiy jarayonning uzviyligini juda aniq ifodalaydi. Chunki har qanday ijodkor oʻzidan oldingi tajribani inkor etmaydi, balki uni ichki qayta ishlash orqali yangi badiiy shaklga olib chiqadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, anʼana ijodkorni cheklamaydi, aksincha, uning ijodiy

imkoniyatlarini kengaytiradi. Ya'ni, yangilik bu an'anadan uzilish emas, balki uni yangi talqinda davom ettirishdir. Agar matnda an'anaviy asos sezilmasa, u o'quvchi ongida badiiy tizim sifatida mustahkamlanmaydi va yangilik sifatida ham to'liq qabul qilinmaydi.

Bilamizki, biror ijodkorning ijod olamining boyishida, tafakkur sarhadlarining kengayishida, tajribasini, ijod texnikasining takomil topishida dunyo adabiyoti va uning yetakchi an'analari ta'sir qilmasdan qolmaydi. XX asr boshidayoq o'zbek adabiyotida Yevropa ma'rifatchilik adabiyotining ta'siri sezila boshladi. Badiiy shakl, g'oya bobidagi izlanishlar jadid ijodkorlarimiz asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan, Abdurauf Fitrat qalamiga mansub "Munozara", "Hind sayyohi" asarlari fransuz adibi Monteskenning "Fors xatlari", ingliz yozuvchisi Goldsmitning "Dunyo fuqarosi yoki xitoylik kishi xatlari" nomli asarlar bilan bir xil badiiy kompozitsion usulda yozilgan.

Ko'pincha ijodkor uslubining uzoq-yaqin o'zanlardan suv ichgani uning yaratgan asarli va boshqa xalqlar adabiyotida uchraydigan o'xshash motivlarning mavjudligida ko'rinib qoladi. O'xshash motivlar qiyosiy-tipologik tahlili va uning nazariy asoslari adabiyotshunoslikda nemis donishmandlari I.G.Gerder, I.V.Gyote, ingliz olimi J.Denlon, rus adabiyotshunoslari F.I.Buslayev, A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya, D.Dyurishin kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlar adabiy ta'sir va turli millat adabiyotlararo hamkorlik badiiy jarayonning muhim bir qismini tashkil qiladi. Qolaversa, bu ijodiy yaqinlashuv mazmunan hamohang asarlar yaratilishiga turtki bo'ladi. Bir-biriga o'xshash tipologik omillarning yuzaga kelishiga ba'zan tarixiy o'tmishi, mafkuraviy tuzumi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlaridagi o'zaro geografik yaqinlik sabab bo'lsa, ko'pincha ijodkorlarning professionallikka intilish uchun o'qigan asarlari, o'rgangan xorijiy yozuvchilarining hayoti faoliyati zamin vazifasini o'taydi. Sh. Xolmirzayev jahonning buyuk yozuvchilari ijodini chuqur o'rgandi, ularning ma'lum bir jihatlarini o'zida shakllantirishga erishdi. Jumladan, amerikalik yozuvchi Jek London, rus adibi L. Tolstoy, hind yozuvchisi Robindranat Tagor ijodini sinchkovlik bilan mutolaa qiladi. Bu haqida adibning o'zi shunday fikr bildirgan edi: "Klassiklar deganda men to'rtta adibni eslatish bilan kifoyalanaman: rus adabiyotida Chexov, ingliz adabiyotida Jek London, hind adabiyotida Tagor va o'zimizning adabiyotda Abdulla Qahhor"[5.33].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qiyosiy-tipologik, metod – ikki asardagi g'oya va obrazlar tizimini solishtirish uchun; tahliliy (analitik) metod - syujet, kompozitsiya va badiiy detalni chuqur o'rganishda; germeneytik yondashuv – matn mazmunini talqin qilishda; intertekstual tahlil – madaniy va falsafiy umumiyliklarni aniqlashda foydalandik.

Tahlil va natijalar. Shukur Xolmirzayevning "Kimsasiz hovli" va Robindranat Tagorning "Meros" hikoyalari badiiy g'oya va poetik ifoda jihatdan o'zaro mushtaraklik kasb etadi. Shukur Xolmirzayev Tagor ijodini o'rganar ekan, bu haqida: "So'ngra,

keyinchalik shuni anglab qoldimki, Tagor hikoyalaridagi ma'no shunchaki ma'no, yoki millat chegaralaridagi ma'no bo'lmasdan, balki umuminsonlar uchun ham kerakli bir ma'no ekan...Shuning uchundir, shu kunlarda ham ba'zi hind millatchi tanqidchilari "Tagor hindlar uchun yozmagan, u Yevropa uchun yozgan!" – degan gapni aytib yurishibdi. "Tagor – Sharq va G'arb orasidagi ko'prik"[6.34]. Darhaqiqat, u nafaqat hind, balki jahon adabiyotining yirik namoyandasi sifatida insoniy qadriyatlar, ma'naviy tanazzul, jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlarni teran badiiy talqin qilgan yozuvchidir. Uning "Meros" nomli hikoyasi hasislik, meros va avlodlararo ziddiyat mavzularini qamrab olgan chuqur falsafiy va ijtimoiy qimmatga ega asardir.

Hikoyaning bosh qahramoni Jagannatx Kundo qadimiy diniy urf-odatlariga ergashuvchi, keyinchalik esa haddan tashqari boylikka berilgan hasis sifatida tasvirlanadi. Uning bu fazilatlari tufayli oilaviy muhit yemiriladi. O'g'li Brindabon esa yangi zamon fikrlarining ifodachisi sifatida otasining qadriyatlarini rad etadi.

Brindabon xotini davolanishiga pul ajratilmagani uchun uni yo'qotadi va shu sababli otasidan tamoman voz kechadi. Tagor bu holatni fojiali kulminatsiyaga olib keladi. Jagannatxning "Agar men biron vaqt senga biron paysa beradigan bo'lsam, hamma meni sigir qonini to'kkan deb hisoblasin"[7.52] degan so'zlari uning hasislikda qanday chegaraga borgani haqida tasavvur beradi. Jagannatx ko'chalarda qolgan Nitay Pal ismli notanish bir bolani o'z merosxo'ri sifatida tarbiyalamoqchi bo'ladi, biroq hikoya davomida uning bu rejalari ham barbod bo'ladi. Tagor merosni faqat moddiy tushuncha emas, balki axloqiy mas'uliyat deb talqin yetadi.

Adabiyotshunos K. R. Srinivasa Iyengar qayd etganidek, "Tagorning qahramonlari ko'pincha an'ana va islohot, ma'naviy yuksalish va moddiy qulash o'rtasidagi qarama-qarshiliklar timsolidir"[8.543]. Sukanta Chaudhuri esa Tagor asarlarida tasvirlangan oilani "faqat ijtimoiy birlik emas, balki axloqiy to'qnashuvlar o'chog'i" deb baholaydi[9.256]. Aynan shu holat "Meros" hikoyasida o'zining yorqin ifodasini topgan. R. Tagorning meros hikoyasida boylikka ruju qo'ygan hasisi insonning o'z nabirasini o'ldirib qo'ygani tasvirlanadi. Brindabon Kundo - Jagannatx Kundoning o'g'li. Jagannatx – qadimgi taqvodolarning ulug' odatlariga qattiq amal qiluvchi, ya'ni kiyim-kechakdan, ovqatdan o'zini tiyib yashashni ma'qul ko'rar, ammo o'g'li uylanganidan keyin bu holat unga va kelinga malol kela boshlaydi. Hatti-harakatlaridan ma'lum bo'ladiki, u diniy aqidalarga amal qilib azob chekishdan ko'ra moddiy dunyo rohatlarni afzal biladi, Jagannatxning harajatlari kun sayin ortib boradi va tabiiyki, ikki xil fikrlaydigan moddiy boylikni inson qadridan ustun qo'yadigan ota bilan yangicha fikrlaydigan, inson qadri har narsadan ustun deb hisoblovchi o'g'il o'rtasida tez-tez janjal chiqa boshlaydi. Oxiri Brindabonning xotini qattiq kasal bo'lganda, Jagannatx doktorga "Qimmat dori yozibsana" deb haydab yuboradi. Otasining ziqnaligi oqibatida Brindabonning xotini kasallikdan vafot etadi. Otasining asl qiyofasini uning ushbu so'zlaridan anglab yetadi: "Agar qimmat dori o'limdan qutqarsa,

podsholar nega o'ladi, Xotini o'ldi deb g'avgo ko'tarish kerak ekanmi! Onang bilan buvingdan uning qayeri ortiq?"[10.51]

Uning onasi va buvisi ham bu hasisning dastidan dori darmon ichmay o'lib ketishgan. Muallif Brindabonni davrining ilg'or fikrli odami sifatida tasvirlar ekan, bu hasisning bo'lmag'ur qonunlari ustunlik qiladigan xonadonda yashashini aslo istamaydi. Muallif har ikki qahramonning yuz ko'rmas bo'lib ketishini shunday tavsiviraydi: "...agar biron vaqt senga biron paysa bersam, hamma meni sigir qonini to'kkan deb hisoblasin, - deb qasam ichadi. Brindabon esa "agar men otamning qoniga ko'z tiksam, onamni o'ldirganim bilan teng bo'lsin", deb qasamyod qiladi[11.44]. Yozuvchi Tagor Jagonatxning mol-dunyoga shu qadar o'ch ekanini shunday tasvirlaydi. ...Uni faqat bir narsa qiynar edi. O'g'li bilan birga 4 yashar nabirasi Gokulchondro ham ketdi. Gokulning ovqati va kiyimga ketadigan harajat juda oz edi. Uning hasisligi el ichda shunday ayon bo'lib qolgan edi, bolalar uni ko'cha-ko'yda ko'rib qolishsa, nomini aytib qo'yishdan qo'rqqar edilar. Chunki "bengaliyaliklarning e'tiqodiga ko'ra hasisining nomini tilga olgan kishi kun bo'yi ovqat yemasligi kerak" edi. Yozuvchi hasisning "ozg'in, qonsiz" badanidan junjikkan odamlar uni "ko'rshapalak" deb nomlashlarini aytib o'tadi. Bu qahramoniga bas keladigan abjir, o'ziga o'xshagan takallufsiz bir bola paydo bo'ladi. Yolg'izlikdan zerikib ketgan hasis o'zi uchun u bir ermak ovunchoq bo'lishini o'ylab, o'zi bilan yashashni taklif qiladi. Bolakay uyidan qochib ketgan, hasisning uyida qolishga rozi bo'ladi. Jagonatx unga ancha o'rganib qolgan va tinmay "senga bor boyligimni meros qilib qoldiraman" der edi. Yozuvchi hasis faqat boyluk bilangina yonimda istagan insonimni olib qola olaman deb o'ylar, ammo o'z farzandigan bu ishongan usuli o'tmaganidan hayron edi. Bolakay Nitay Palning hamma aytganini bu chol miq etmay bajo keltirar, muhimi u tashlab ketmasa bo'ldi edi. Ammo uning otasi bu qishloqqa uni izlab kelayotganini eshitgan, voqealar boshqacha tus oladi. Chol bolakayga merosini ko'rsatish va otasidan yashirish uchun uni xaroba ibodatxonaga olib boradi. Kichik bir g'or tuynugidan yerto'ladek keladigan vayrona ibodatxonaga kirishadi. Xonadagi mis ko'zllalarda hasisning umri davomida yig'gan pullari-rupiyalari bor edi. Chol bu pullarni Nitayga berishini aytar ekan, shuni tayinlab uqtiradi: "Bir shart qo'yaman, agar mening nabiram Gokulkondro (men uning qayerdaligini bilmayman), yoki uning o'g'li, yoki o'g'lining o'g'li, yo nabirasi, yo bo'lmasa uning avlodlaridan birortasi kelsa – sen bu pulning hammasini o'shanga topshirasan..."

Muallif bu bolakayning aslida kim ekanini sir tutadi, ochiq aytmaydi, ammo hasisning xatti-harakatlari uning kimligiga ishora etib boradi. Hikoya yechimida shunday fojiaiy yakun bo'lganki, kitobxon buni oldindan sezib tursa-da, shu fojiaiy ro'y berishini istamay xavotirlanib turadi. Hasis o'z bolasini boyluklari yashiringan yerto'laga qamab, yerto'la eshigining ustini qum va shag'allar, toshlar bilan yopib tashlaydi. Boshqacha qilib aytganda, boyluk deb aqldan ozgan chol o'z nabirasini tiriklayin dafn etadi. Bolakay qo'rquvdan nafas ololmasdan u yerda jon beradi. Bolakayning yerto'lada qolib ketganini kimsa bilmaydi. Hikoya yakunidan Nitayning o'lim oldi holati shunday

berilgan shunday: “Cholning ketidan bu ismlarni to‘xtovsiz takrorlash natijasida bolaning ahvoli yomonlashdi. Ruhiiy ta’sir etish marosimi bitganda, bu kichkina g‘orni qorachiroqning tutunidan va ikki kishining nafas olishidan boshi aylanib, qo‘l oyoqlari yonib, nafasi siqildi. Jagonatx toshni g‘or tuynugi ustiga surib qo‘ygach, quloqlarini yerga qo‘yib Nitayning yana bir marta bo‘g‘iq ovoz bilan chaqirganini eshitdi: “– Ota!

Shundan so‘ng bir narsa gurs etdi-yu, sukunat cho‘kdi, Jagonatx tosh ustiga tuproq sepa boshladi. Ustidan ibodatxonada sochilib yotgan g‘isht va shag‘allarni to‘kdi...

Tong otayozgan edi. Lekin u yerdan sira ketolmadi. Ahyon-ahyonda qulog‘ini yerga qo‘yib, tinglardi. Uning nazarida uzoqdan, go‘yo yer qa‘ridan yig‘i ovozi kelganday tuyilardi.

Birdan kimdir chaqirdi .. – Ota!

Chol yer tepib gapirdi! Jim birov eshitadi!

...Jagonatx qo‘rquv bilan orqasiga o‘grilgan edi – ro‘parasida Brindabon turibdi!

Ota eshitishimcha, o‘g‘lim sening uyingda yashirilib yurar ekan, uni menga qaytarib ber.

...Chol qo‘llarini oldinga cho‘zib, panjalarini yozib, go‘yo havoga tayanmoqchi bo‘ldi va yerga qulab tushdi”[12.54].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, Tagor nasrida ham, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ham individual axloqiy drammatizm ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar bilan kesishib boradi. “Meros” va “Kimsasiz hovli” hikoyalarida hasislik, boylikka o‘chlik faqat bir shaxsning illati sifatida emas, balki jamiyatdagi qadriyatlar yemirilishining belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman, har ikki hikoya moddiy boylik va ma’naviy boylik orasidagi ziddiyat masalasi chuqur tahlil qiladi. Har ikki hikoya o‘zining soddaligi va fojiasi bilan o‘quvchida kuchli ta’sir uyg‘otadi. Tagor Jagannatx Hosila va Umar obrazi orqali ma’naviy qashshoqlik insoniy aloqalarni qanday yemirishini ko‘rsatadi. Ijodkorlar inson o‘z avlodiga hasislik bilan to‘plagan mol-dunyosini emas, chin insoniy fazilatlarini, ma’naviy boylikni meros qilib qolishga intilishi lozim degan xulosani beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bloom, H. (1973). *The anxiety of influence: A theory of poetry* (Introduction: “A Meditation upon Priority, and a Synopsis,” Oxford University Press. pp. 5-18.
2. Iyengar, K. R. S. (1962). *Indian writing in English*. Bombay: Asia Publishing House. 543 p.
3. Лотман, Ю. М. (1970). Структура художественного текста. Москва: Искусство. 384 с.
4. Мозолева И. А., Хализев В. Е. Традиция и новаторство в литературе // Литературный энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1987. С. 443-444.
5. Rabindranath Tagore. (2011). *Tagore: The world as his nest*. New Delhi: Niyogi Books. 256 p.
6. Rusova, N. Yu. (2004). Терминологический словарь-тезаурус по литературоведению. Москва: Флинта, Наука.
7. Робиндранатх Тагор. Асарлар. IV том. Ҳикоялар. Ўз АССР давлат бадиий адабиёт нашриёти. Тошкент. 1962. - Б. 52
8. Xolmirzayev Sh. Men adabiyotni qismatim deganman...: adabiy o‘ylar, maqolalar, suxbatlar. Toshkent: Sharq. 2022. – B. 33.
9. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. Тошкент: Шарқ, 2020. – Б.34.